

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

7/2024



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2024, № 8, avgust

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Jamilova Bashorat Sattorovna, filologiya fanlari doktori, professor

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
G'ulomova N.S.	Yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun g'azallarni grammatik teglash xususiyatlari	3
Sheraliev Sh.A.	Transformation of phraseological units in scientific research	8
Зиёдиллаева М.Э.	Интерпретация понятия «свобода» в культуре англоязычных народов	13
Xakimova X.B.	Toponimik birliklarning tilshunoslikda paydo bo'lishi va o'rganilishi	17
Ziyodillaeva M.E.	«Value» in linguistics and its place in the paradigm of anthropocentric sciences	22
Sharipova G.B.	Fransuz tilshunosligida maqol til va nutq birligi sifatida	26
Ibragimov M.B.	Futbol terminlarining kelib chiqish tarixi va tavsifi	31
G'ulomova N.S.	Alisher Navoiy mualliflik korpusida she'riy san'atlarni tavsiflash masalasi	35
Buzrukova M.M.	Turizm diskursida pragmatik komponentning voqelanish shakllari	40
Bekmurodova S.H.	Texnik matnlarda temir yo'l atamalarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari	46
Abduqodirova S.A.	Tilshunoslikda reklama matnlarining psixolingvistik tadqiqiga doir ishlar tahlili	51
Саидова З.Х.	Морфологическая структура местоимений в русском языке и их функции в предложении	55
Qazaqova N.A.	Diskursiv tahlil va undagi asosiy tushunchalar	60
Husanxo'jayev O.M.	O'zbek tili pedagogik leksikasidagi eponim-terminlarning lisoniy xususiyatlari	65
Babayarov M.X., Dilmurodova Sh.I.	Alisher Navoiy asarlarida sport leksemalarining qo'llanilishi	70
Qobilova N.S., Ollomurodov A.O.	Badiiy diskursdagi hissiyot va tuyg'ularning kinodiskursda qayta yaratilishi	77
Мухамадиев С. Б.	Семантическое, генетическое и лингвокультурное исследование лексики животноводства на узбекском и английском языках	83
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Kasimova N.F.	Linguophilosophical aspects of translation in the light of its psycholinguistic model	88
Qodirova N.S.	O'zbek tanqidchiligida uslubga munosabat	95

Alimov T.A.	“O’tkan kunlar” romani tarjimasida gender aspektining kategorial-qiyosiy tavsifi	100
Дармонов И.К.	Шомон инициацияси ҳақидаги афсоналар	104
Hamdamova Sh.S.	Tohir Malik ijodida ilmiy fantastik kashfiyotlar talqini	109
Ismonova Y.A.	Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani tahlili	114
Mirzayeva S.R.	The character of Sabir in Abbaskhan Nasirli's novel «Idrakdir musibate mizan»	118
Otanazarova S.O.	Dog‘iy adabiy manbalari tadqiqi	124
Umarov U.A.	Qahramonning sayohati arxetipining badiiy tahlili	129
Авезова Д.С.	Кто скрывается под псевдонимом?	134
Мухаммадиев Ш. М.	Божественная интервенция и её роль в античной литературе	142
Мейлиева М. О.	Женская проза в русской литературе	147
Rizaeva Sh. Sh.	The artistic literature of existentialism and absurdity in the works of Ernest Hemingway and X. Dostmuhammad	152
“NAVOIY GULSHANI”		
Bekova N.J., Almaz u.B., Ibroimova M.N.	Alisher Navoiyning tabr g‘azallari tahlili (“Devoni Foni”dagi “Dar tavri Xoja” va “Dar tavri Maxdumiy” g‘azallari misolida)	156
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Sadibaqosev H.Sh.	Dunyo xavfsizlik arxitekturasida sharq modellarining o‘ziga xos xususiyatlari	160
Hasanov Sh.Sh.	Siyosiy ziddiyatlarning kelib chiqish sabablari	165
Ganiev A.A.	Acculturation strategies of Uzbek immigrants in South Korea: navigating cultural adaptation through Berry's model	169
Rustamova M.M.	Participation of women of Samarkand region in society and science	175
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Shamsiyeva Z.A.	“Kuyovnavkar” marosimi etnografik tahlili (Buxoro vohasi misolida)	179
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
Saparniyazova A.Q.	Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik modellari	183
Saparniyazova A.Q.	Ilm-fan va tabiat markazlarida ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda rolli o‘yin vositalaridan foydalanish	188



Navoiy gulshani

ALISHER NAVOIYNING TABR G'AZALLARI TAHLILI

(“Devoni Foni”dagi “Dar tavri Xoja” va “Dar tavri Maxdumiy” g'azallari misolida)

Bekova Nazora Jo'rayevna,

Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d.

Almaz ulvi Bunnatova,

Ozərbayjon Milliy Ilmlar

Ozərbayjon-Turkmaniston-O'zbekiston

adabiy aloqalar bo'limi mudiri, Baku davlat universiteti professori, f.f.d.

Ibroimova Mahliyo Najmiddinovna,

Buxoro tuman 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tavr – hol-ahvol, qiyofa, suvrat, biror narsa atrofida aylanish, tarz, yo'sin, usul, tartibni, odat (manera)ni anglatadi. Adabiyotshunoslikda biror she'ning mohiyati uslubini olib, shu yo'sinda asar yozishdir. «Devoni Foni»da shunday g'azallar mavjud. Masalan, «Dar tavri Xoja», «Tatabbu'i Maxdum, dar tavri Xoja». Bunday g'azallarda vazn, qofiya (radif) mezon qilib olinmaydi, balki uslub, mazmunni she'riy talqiniga, uslub, rangga rioya qilinadi. Bu adabiy yo'l shoirlarning o'zaro musobaqasi yo'sinida bo'lib, mazmun o'zgalik, jilolarini yangicha talqinini yaratishga undagan. Yangicha talqinda esa timsollar, badiiy vositalar, bayondagi adolarga alohida e'tibor qilish kerak bo'lgan.

Ushbu maqolada biz “Devoni Foni”dan o'rin olgan 5-6-tavr g'azallar bo'lmish “Dar tavri Xoja” hamda “Dar tavri Mardumi Nuran” g'azallarini tahlil qilishga va nashrlardagi matnini qiyoslashga harakat qildik.

Dar tavri Xoja

Maro, ki g'arqa shudam dar miyoni bahri sharob,
Xalos kay buvadam juz ba kishtii mai nob?

Rumuzi nash'ayi may, ey, ki dar nameyobi
Kunun, ki jomi mayat mediham ba kaf, daryob!

Daromady chu ba dayri mug'on ba sajdayi but,
Ishorat ar kunadat piri dayr, ro'y matob!

Dilam zi sina burun shud, ki go'shaye girad,
Zi abro'yi tu shudash joy, go'shayi mehrob.

Xush on shabe, ki man az sarxushi hamesudam
Du dida bar kafi poi habibu o' dar xob.

Xarob gasht zi may soqiyu, dilam z-o' mast,
Chi aybi bexudi az dil, ki hast masti xarob?!

Biguftamash: chi shitobat ba raftan ast, ey umr?
Biguft: umr chu gufti mago', digar mashitob!

Biyo, ki maxfii du kavnat oshkor kunam,
Ba sharti on, ki naxustam dihi du jomi sharob

Hisobi subha bimon, zohido, fano bigzin,
Zi toatu tuvu Foni, dar in jahon chi hisob?

Xush on shabe, ki man az sarxushy hamesudam
Du dida bar kafi poi habibu o' dar xob.

Xarob gasht zi may soqiyu dilam z-o' mast,
Chi aybi bexudy az dil, ki hast masti xarob.

Biguftamash: chi shitobat ba rafta ast, ey umr?
Biguft: umr chu gufty, mago' digar mashitob.

Biyo, ki maxfii du kavnat oshkor kunam,
Ba sharti on ki naxustam dihy du jomi sharob.

Hisobi subh bimon, zohido, fano bigzin,
Zi toati tuvu Fony, dar in jahon chi hisob?

(Alisherv Navoiy. MAT. XX tomlik. 19-tom. Toshkent: "FAN", 2002. – B.74)

20 tomlik	15 tomlik
Ba rafta ast	Baraftanat
Dihi	Dihi
Jomi sharob	Jom sharob
Subh	Subha
Bigzin	Biguzin

Mazkur g'azalda ko'rinib turganidek, nashrlar orasida yuqoridagicha matniy tafovutlar mavjud. Ushbu tafovutlar ham ma'noga, ham vaznga ta'sir qiladi.

G'azal tarjimasi

1. Men sharob dengizi o'rtasida g'arq bo'lganman,
tiniq may kemasi yordam qilmasa, qachon xalos bo'laman?

Sharh: ushbu g'azalda ko'rinib turganidek, rindona g'azal bo'lib, maydan sarxush bo'lgan va shu qadar ko'p may ichganidan uning dengiziga g'arq bo'lgan kabi holga tushgan kishi tilidan aytilyapti. Bu yerda ikkita asosiy detal bor: 1) "sharob dengizi", 2) "may kemasi". Sharob (uzum suvidan olinadigan quyuq mast qiluvchi ichimlik) dengiziga g'arq bo'layotgan lirik qahramon may (tiniq, shaffof mast qiluvchi ichimlik). Ushbu o'rinda "Xo'sh nega sharob dengizida g'arq bo'layotgan lirik qahramon najotni may kemasidan kutmoqda?", degan savol tug'iladi. Bu savolga javob topish uchun "sharob dengizi", "may kemasi"ning ramziy ma'nolari nima ekanligini topish kerak bo'ladi. Bu sharob va may, albatta, ramziy ma'noga ega bo'lib, bu haqida navbatdagi baytda muallifning o'zi ham so'z yuritadi.

2. Ey may nash'asining ishora va ramzlarini topa olmagan odam,
endi bir piyola mayni qo'lingga beraman, u ramz va ishoralarni topgil.

Sharh: haqiqatda ancha chuqur mushohada yuritishga undaydigan bayt bilan g'azalini boshlagan Navoiy bu yerda "Agar bu ramzlar ma'nosini topa olmayotgan bo'lsang, sening qo'lingga o'sha maydan bir piyola beraman", demoqda.

3. Mug'lar dayridagi jononga sajda qilmoq uchun kirgan
bo'lsang, dayr piri nimaga ishorat qilsa, bo'yin tovlamay ado et.

Sharh: Mug' (otashparast; mayfurush) degan ma'nolarni bildiradi. Ya'niki, ey jononga sajda qilish uchun majusiylar makoniga kirgan odam – solik, "dayr piri" – pir senga nimani buyursa, unga bo'yin tovlamasdan itoat qil.

4. Bir kunjakdan joy olish uchun dilim ko'ksimdan chiqqan edi, qoshing mehrob kunjidan joy oldi.

5. Qanday ajoyib kecha ediki, men kayf bilan ko'zlarimni jonon oyog'iga surtar edimu, u uxlab yotar edi.

Sharh: Bu yerda ham jonon ishqidan, ham maydan mast bo'lgan "mayxo'r" holati berilgan. Bu yerda "u ajoyib kechni" lirik qahramon go'yoki tamshanib, xumor qilib eslaydi. Bu mast ko'zlar uchun esa yorning oyog'i go'yoki bir mehrob kabi.

6. May ta'siri bilan soqiy hushdan ketdi, men (esam) soqiydan mast bo'ldim, hushdan ketganning masti bo'lgan dilga bexudlik ayb emas.

Sharh: Soqiyning o'zi maydan shu darajada mast bo'ldiki, bu mastlik oxir uni yiqitdi, hushidan ketkazdi. Mening qalbim asli o'shal soqiyning masti bo'lgan. Endi soqiy hushdan ketganidan keyin men ham bexud – behush bo'lsam, mening bu holatim sira ham ayb emas.

7. Umr (mahbub)ga xitob qilib: «Nima uchun muncha shitob bilan ketyapsan?» dedim. u aytdi:

«Meni umr dedingmi, (endi) «shitob qilma» dema».

Sharh: umr mahbubi – yorga "Nega bunchalik shitob qilasan?" deganimda u aytdiki, "Sen meni yor, mahbub dedingmi, endi mening harakatlarimdan nolima. Men senga nimani ravo ko'rsam shuni rozilik bilan qabul qil." Bu baytda kimgadir yoki nimagadir muhabbat bilan bo'lgangan ko'ngil uni boricha qabul qilishi kerakligi xususida gap ketmoqda.

8. Kel, ikki dunyo sirini ochib beraman, lekin shartim shuki, avval ikki piyola may bergaysan.

9. Ey zohid, tasbehingni ko'p hisoblab (o'girib) o'tira berma, fano yo'lini ushla,

Sen bilan Foniyning toat-ibodati bu jahonda hisobga qo'shilmaydi.

G'azal so'ngida Navoiy zohidga murojaat qilib, "Sen tasbeh sanab, zikrlaringni, toatingni hisob qilib yurmagin. Sen undan ko'ra fano, yo'qlik – o'zdan voz kechadigan darajada Allohga muhabbat bilan bog'lan. Chunki asli foni bo'lgan bu jahon va undagi narsalardan uzilgan kishilargina haqiqiy "baqo ganji" bo'lgan Allohning boqiy vuslatiga sazovor bo'ladilar

Dar tavri Maxdumi Nuran

Manu zi hajri mahe nolavu fig'on har shab,

Fig'onu nola rasondan ba osmon har shab.

Zi ishq tozajavone bigo', chy gasht, rasid

Hazor javr ba in piri notavon har shab?

Payi nazora ba kunje nihon shavam, ki ravad

Zi bazmi shah ba so'i xona on javon har shab.

Ba ko'i o' manu o', ham ba ko'i dilbari xesh

Az o' nihon manu o', ham zi man nihon har shab.

Zamon-zamon fikanam xeshro ba ko'yash, lek

Sagon burun fikanandam kashon-kashon har shab.

Harifi bazmi tu xoson, maro bas in, ki niham

Sari niyoz bar on xoki oston har shab.

Ba ko'i o', ki hazoron balost, ey Foni,

Nagufta tarki saru jon, mashav ravon har shab.

(Alisherv Navoiy. MAT. XX tomlik. 19-tom. Toshkent: "FAN", 2002.-B.76)

20 tomlik	15 tomlik
Tozajavone	Toza javone
Bigo', chy	Bako'cha
Bas in	Basast

G'azal tarjimasi

1. Mening ishim bir oy yuzlining hajridan har kecha nolayu afg'ondir,

fig'onu nolani har kecha osmonga yetkazaman.

Sharh: ushbu oshiqona g'azalda hajr tunida oh chekayotgan oshiq holi tasvirlanadi. Bu hajr tunida yorning yuzi to'lin oy misoli porlab turadi. Oshiqning nolalari esa o'sha qorong'u osmonga qadar yetadi.

2. Toza ishqdan navqiron yigitga nimalar yetdi, ayt, har kecha bu kekxa notavonga minglarcha jabr va zulm yetadi.

Sharh: Bu pokiza ishqdan bu navqiron jismga nima yetdi, deya so'raydi va o'zi unga javob beradi. Undan faqat jabr va zulm yetdi.

3. U go'zal har kecha podshoh bazmidan, o'z uyi tomon o'tganida, bir ko'rib qolish uchun bir kunjakda yashirinib turaman.

Sharh: Oshiq yor yuzini bir lahza bo'lsa ham ko'rish uchun uning yo'liga ko'z tikib, unga intizor bo'lib turadi. Ammo faqatgina uning yo'lini poylab turmasdan, nogahon yor ko'zi menga tushib qolmasin deb yor o'zini panaga oladi.

4. Har kecha men uning ko'yida, u esa o'z dilbarining ko'yida,
men unga ko'rinmayman, u ham menga ko'rinmaydi.

5. Goh-goh o'zimni uning ko'yiga tashlayman, har kecha
uning itlari sudray-sudray meni tashqariga chiqarib tashlaydilar.

Sharh: Har kecha uning vasli uchun uning ko'y-qishlog'ida yor yo'lini poylayman. Ammo uning itlari meni sudrab-sudrab tashqariga chiqarib tashlaydi.

6. Sening bazming ahllari ulug' kishilardir,
boshimni ostonang tuprog'iga qo'ysam, menga shu bas.

7. Ey, Foni, uning ko'yida minglarcha balolar bordir, bosh va joningdan kechmaguncha, har kecha u yerga boraverma.

Bu g'azaldan chiqariladigan umumiy ma'no shuki, uning hijron tunida yor vasliga muhtoj bo'lgan oshiq holati tasvirlangan. Oshiq yorga ne qadar muhtoj bo'lsa ham, ammo yor vasliga yetish uchun turli to'siq va mashaqqatlarga duch keladi.

Oshiq, Ma'shuqa, Rind, May kabi obrazlar ma'shuqa go'zalligining ta'rifi-yu oshiq kechirgan iztirobli hayot tasviri, uning yor ishqida kuygan joni kabi motivlar Navoiygacha ham mavjud bo'lgan an'anaviy motiv va obrazlar. Biroq hamma gap shoirning badiiy vositalarni qo'llay olish mahorati, badiiy tasvir vositalari, u qo'llagan obrazlar sistemasining naqadar serma'no, serjilo o'ziga xos ekanligidir.